



## KONSTRUKTIV O'YINLAR (LEGO, BLOKLAR, MOZAIIKA) ORQALI TIL O'RGANISHNI INTEGRATSIYALASH

*Matqosimova Mohira Erkinbek qizi*

*ADCHTI , Nemis tili nazariyasи va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi*

*Mohiragina@gmail.com*

*ADCHTI Maktabgacha va Boshlang'ich ta'linda xorijiy til (ingliz tili)*

*yo'nalishi 2 bosqich talabasi*

*Shokirova Zulfizar G'anisher qizi*

*shokirovazulfizar193@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada konstruktiv o'yinlar — lego, bloklar va mozaika orqali til o'rganish jarayonini integratsiyalash masalasi yoritilgan. Tadqiqotda bu o'yin vositalari bolalarning so'z boyligini oshirish, gap tuzish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam berishi tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar asosida o'quvchilarning til o'zlashtirishdagi ijobjiy o'zgarishlari kuzatilgan. Maqolada integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligi va ta'linda qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Konstruktiv o'yinlar, lego, bloklar, mozaika, til o'rganish, integratsiyalash, erta yoshdagi ta'lim, bolalar nutqi, so'z boyligi, ijodiy fikrlash, amaliy darslar, metodika, interaktiv yondashuv, kommunikativ ko'nikmalar, o'quv faoliyati.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается интеграция конструктивных игр — LEGO, блоков и мозаики — в процесс изучения языка. Исследование показывает, как такие игры способствуют расширению словарного запаса, построению предложений и развитию речевых навыков у детей. На основе практических занятий зафиксированы положительные



изменения в овладении языком. В статье даны рекомендации по эффективному использованию интегрированного подхода в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** Конструктивные игры, LEGO, блоки, мозаика, изучение языка, интеграция, дошкольное образование, развитие речи, расширение словарного запаса, креативное мышление, практические занятия, методика, интерактивный подход, коммуникативные навыки, учебная деятельность.

**Annotation:** This article explores the integration of constructive games—such as LEGO, blocks, and mosaics—into the language learning process. The study analyzes how these tools help children expand their vocabulary, form sentences, and develop communication skills. Practical classroom activities showed positive progress in learners' language acquisition. The article also presents recommendations for effectively applying this integrated approach in early education.

**Keywords:** Constructive games, LEGO, blocks, mosaic, language acquisition, integration, early childhood education, speech development, vocabulary building, creative thinking, practical lessons, methodology, interactive approach, communicative skills, learning activity.

**Kirish qism:** Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o‘rgatish va o‘rganish jarayoni nafaqat o‘rta, balki maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bolalarning erta yoshdanoq tilga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, ularni faol ishtirokga jalb qilish va tilni amaliy tarzda egallahshlariga yordam beradigan metod va vositalarni tanlash dolzarb masalalardan biridir. An’anaviy usullardan farqli o‘laroq, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va konstruktiv yondashuvlar bolalarning tabiiy o‘yin faoliyatini til o‘rganish jarayoniga integratsiyalash orqali yanada samarali



natijalarga olib kelmoqda. Konstruktiv o‘yinlar — lego, bloklar va mozaika kabi o‘yin vositalari yordamida o‘quvchilarda nafaqat estetik va motorik ko‘nikmalar, balki til, muloqot, muomala va ijtimoiy faoliyat elementlari ham shakllanadi. 4.Baholash mezonlari og‘zaki ifoda, so‘z boyligi, ishtirok darajasi kabi ko‘rsatkichlar asosida tuzilishi lozim.

Shuningdek, ota-onalarga ham bu yondashuv tavsiya etilishi mumkin. Uyda bola bilan birga lego orqali til o‘rganishga yo‘naltirilgan faoliyatlar tashkil qilish bolaning uy sharoitida ham tilga bo‘lgan qiziqishini davom ettirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayoni:

Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘tkazilgan tadqiqotda konstruktiv o‘yinlarning (lego, bloklar, mozaika) ingliz tilini o‘rganishdagi ta’siri o‘rganildi. Tadqiqotda 5-6 yoshdagi 30 nafar bolalar ikki guruhga bo‘linib, 3 oy davomida kuzatuv olib borildi. Tajriba guruhiga har haftada 3 marotaba ingliz tili mashg‘ulotlariga konstruktiv o‘yinlar integratsiyalangan holda olib borildi, nazorat guruhi esa an’anaviy metodlar asosida dars oldi.Darslar davomida tajriba guruhidagi bolalar lego yordamida uy, hayvonot bog‘i, transport vositalari kabi turli shakllarni yaratib, ularni ingliz tilida ifodalay boshladilar. Har bir mashg‘ulotda o‘qituvchi bolalarga mavzuga mos so‘zlar va iboralarni taklif qildi va bolalar bu so‘zlarni o‘z qurilmalariga nisbatan qo‘lladilar. Bolalar o‘z ishlari haqida so‘zlab berishga undaldi va guruhli muhokamalarda ishtirok etdilar.

Natijalar:

3 oylik davr yakunida ikki guruh ishtirokchilarining so‘z boyligi, og‘zaki ifoda darajasi va darsdagi faolligi bo‘yicha baholash o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra, tajriba guruhi a’zolari:

- yangi inglizcha so‘zlarni o‘zlashtirishda 35% yuqori ko‘rsatkichga erishdi;
- og‘zaki ifoda qilish qobiliyatida ancha faollik namoyon etdi;
- darslarga ishtiyoyq va ishtirok darajasi oshganligi kuzatildi.



Bu tadqiqot konstruktiv o‘yinlar yordamida bolalarda ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirish, so‘z boyligini oshirish va erkin muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda ijobjiy natija berishini isbotladi. Natijalarga tayanib, bu metodni maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim jarayonlariga keng joriy etish tavsiya etildi.

Xulosa: Konstruktiv o‘yinlar — ayniqsa lego, bloklar va mozaika kabi vositalar — kichik yoshdagi bolalar uchun til o‘rganish jarayonida nihoyatda samarali metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular bolalarda faollikni oshiradi, ijodiy fikrlash va mustaqil harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, eng muhim esa til materiallarini amaliy hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. O‘yin faoliyatiga asoslangan ta’lim bolalar tilni faqat eslab qolish emas, balki uni tushunish va qo‘llashga yo‘naltiradi. Tadqiqot natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, konstruktiv o‘yinlar yordamida olib borilgan mashg‘ulotlar bolalarning lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki muloqotga kirishish va tilga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu metod o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida erkin va samimiy til muhiti shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida xorijiy til o‘qitishda konstruktiv o‘yin vositalarini kengroq qo‘llash, ularni darslar mazmuniga moslashtirish va pedagoglarni bu borada maxsus tayyorlash dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Kelajakda bu yondashuv orqali bolalarning nafaqat til bilimi, balki ijtimoiy, mantiqiy va ijodiy salohiyatini ham birgalikda rivojlantirish mumkin.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov, J. (2019). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Nasriddinova, M. (2021). "Konstruktiv o‘yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta’siri". Ta’lim va rivojlanish jurnali, 4(2), 45–49.
3. Oxford, R. (1990). Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. Boston: Heinle & Heinle.



4. Azizova, S. (2020). "Lego orqali ta'lim: boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatish tajribalari". Xorijiy tillar va adabiyotlar jurnali, 1(3), 56–60.
5. Piaget, J. (1951). Play, Dreams and Imitation in Childhood. New York: Norton.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Qodirova, D. (2022). "Maktabgacha ta'limda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda konstruktiv o'yinlarning o'rni". Ilmiy-amaliy maqolalar to'plami, 6(1), 38–42.
8. Cambridge Assessment English. (2018). Young Learners Teaching Guide.